

ILM-FAN VA OLIY TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT KONSORSIUMLARNING ROLI

DOI: 10.34920/phe.2024.17.09

Husniya Boysunova, Marat Rakhmatullaev, Ulugbek Yusupov

Annotatsiya. Ushbu maqolada universitetlarning konsorsiumlarga birlashuvi fan va ta'limni rivojlantirishda oliy ta'lim muassasalarini integratsiya qilishning muhim shakli sifatida ko'rib chiqiladi. Jumladan, EIFL (Electronic Information for Libraries) xalqaro konsorsiumining maqsad va vazifalari, shuningdek, uning O'zbekistondagi faoliyati tahlil qilinadi. Maqolada EIFL tomonidan O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari uchun taklif etilayotgan dunyoning yetakchi nashriyotlariga tegishli elektron resurslardan foydalanish imkoniyatlari yoritib beriladi. Maqolaning asosiy maqsadi – axborot konsorsiumlarining ahamiyatini ko'rsatish va respublika universitetlarining ilmiy-tadqiqot hamda ta'lim jarayonida qo'llash uchun muhim elektron axborot resurslari haqida ma'lumot taqdim etishdan iborat.

Kalit so'zlar: konsorsium, EIFL, elektron resurslar, oliy ta'lim, O'zbekiston, akademik kutubxonalar, xalqaro hamkorlik

THE ROLE OF INFORMATION CONSORTIA IN IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF SCIENCE AND HIGHER EDUCATION

DOI: 10.34920/phe.2024.17.09

Husniya Boysunova, Marat Rakhmatullaev, Ulugbek Yusupov

Abstract. This article explores the formation of university consortia as a vital form of integration for advancing science and education. Specifically, it analyses the goals and objectives of the international consortium EIFL (Electronic Information for Libraries) and its activities in Uzbekistan. The article highlights the opportunities for utilising electronic resources from leading global publishers, provided by EIFL, to support higher education institutions in Uzbekistan. The primary aim of the article is to emphasise the significance of information consortia and to introduce key electronic information resources that can be applied to scientific research and educational processes at universities in the Republic.

Keywords: consortium, EIFL, electronic resources, higher education, Uzbekistan, academic libraries, international cooperation

Kirish. Oliy ta'limda konsorsiumlar ahamiyati

Hozirgi davrda ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, qimmatli ilmiy-ta'limiy resurslarga keng va tizimli kirishni ta'minlash, masofaviy ta'limni rivojlantirish kabi yo'nalishlarda faol hamkorliksiz, yuqori reytingli va nufuzli universitetlar faoliyatini tasavvur etish qiyin. So'nggi yillarda oliy ta'lim muassasalarining o'zaro kooperatsiyasi, ularning konsorsiumlar shaklida birlashuvi nafaqat milliy darajada, balki xalqaro va global miqyosda ham keng rivojlanib bormoqda.

Konsorsium - bu umumiy maqsad yo'lida birlashgan mustaqil tashkilotlarning hamkorlik shaklidir. Jahonning yetakchi nashriyotlariga tegishli elektron ma'lumotlar bazalariga erkin va tizimli kirish imkoniyati zamonaviy ilmiy-tadqiqot faoliyati va ta'lim jarayonining rivojlanishida muhim omil sifatida e'tirof etiladi. Shu munosabat bilan, oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy va dolzarb ilmiy-

ta'limiy resurslar bilan ta'minlashni o'z faoliyatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilagan kutubxona konsorsiumlarining roli sezilarli darajada ortib bormoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasida bunday missiyani milliy va xalqaro miqyosda akademik kutubxonalarni birlashtiruvchi kutubxona konsorsiumlari muvaffaqiyatli amalga oshirib kelmoqda [1,2]. Bunday hamkorlik kutubxonalar uchun xarajatlarni kamaytirish, axborot manbalariga kengroq kirishni ta'minlash, tajriba va texnologiyalar almashish imkoniyatlarini yaratadi.

Zamonaviy ta'lim va ilm-fan rivojida axborot resurslarining o'rni beqiyosdir. Talabalar, o'qituvchilar va tadqiqotchilar ilmiy izlanish olib borish, zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish hamda mustaqil ta'lim olish jarayonida sifatli va ishonchli ma'lumotlarga ehtiyoj sezadilar. Elektron ma'lumot bazalari, ilmiy jurnallar, raqamli kutubxonalar va boshqa axborot resurslari fanning rivojlanishini ta'minlaydi. Shu sababli, kutubxonalar zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llagan holda ushbu ehtiyojlarni qondirishga intilmoqda.

Biroq, ko'pgina universitet kutubxonalari foydalanuvchilarga barcha zarur resurslarni, jumladan, xorijiy va milliy dissertatsiyalar, tadqiqot ishlari, jahon axborot resurslari kabi manbalarga erkin kirishni ta'minlay olmaydilar. Bu esa universitetlar va kutubxonalar o'rtasida yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish kerakligini taqozo etadi. Masalan, resurslarni almashish, birgalikda elektron resurslarga obuna bo'lish, raqamli platformalarni hamkorlikda ishlab chiqish va kutubxonachilar malakasini oshirish sohalaridagi hamkorlik nafaqat resurslardan samarali foydalanishga balki jamiyat, mamlakatning ilmiy salohiyatini o'sishiga ham xizmat qiladi.

Yurtimizda ko'plab kutubxonalar moliyaviy jihatdan cheklangan, bu esa xalqaro elektron resurslarga yakka o'zi obuna bo'lish imkoniyatini kamaytiradi. Shuningdek, axborotga teng kirish imkoniyatini yaratish, hududiy kutubxonalar o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirish, axborot infratuzilmasini rivojlantirish kabi masalalar konsorsium tuzish kerakligini asoslaydi. Masalan, O'zbekiston Kutubxonalar Konsorsiumi orqali oliy ta'lim muassasalari Springer, EBSCO kabi yirik ilmiy platformalarga birgalikda obuna bo'lishi mumkin, bu esa xarajatlarni kamaytirish bilan birga barcha ishtirokchi kutubxonalar foydalanuvchilari uchun keng va teng imkoniyatlar yaratadi. Natijada, kutubxona konsorsiumlari orqali ta'lim va fan sohasida raqamli transformatsiya tezlashadi, ilmiy izlanishlar uchun sharoitlar yaxshilanadi va kutubxonalar o'zaro integratsiyalashgan holda faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'zbekiston 20 yildan ortiq vaqt mobaynida xalqaro EIFL (Electronic Information for Libraries) konsorsiumining to'laqonli a'zosi hisoblanadi. EIFL – bu notijorat tashkilot bo'lib, rivojlanayotgan mamlakatlar hamda o'tish davridagi iqtisodiyotga ega davlatlarda, jumladan Afrika, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi, Yevropa va Lotin Amerikasi mamlakatlarida kutubxonalar bilan hamkorlikda bilimlarga kirishni ta'minlashni maqsad qilgan. EIFL konsorsiumining asosiy missiyasi – rivojlanayotgan va o'tish davridagi iqtisodiyotga ega mamlakatlarda barqaror taraqqiyotni qo'llab-quvvatlash maqsadida kutubxonalar orqali ilmiy va axborot resurslariga erkin va teng kirishni ta'minlashdan iboratdir [3].

Rivojlanayotgan va o'tish davridagi iqtisodiyotga ega mamlakatlardagi milliardlab odamlar hanuzgacha zarur resurslarga ega emas. Bunga sabab – litsenzion resurslarning yuqori narxi, axborotdan foydalanishga oid yuridik to'siqlar, raqamli infratuzilmaning sustligi va raqamli savodxonlik ko'nikmalarining past darajada ekanligidir. Shu bilan birga, mualliflar ham o'z ilmiy ishlarini ochiq holda tarqatishda to'siqlarga duch kelishmoqdi. Yaxshi resurslarga ega kutubxonalar sog'liqni saqlash, fan va innovatsiya, qishloq xo'jaligi, ta'lim kabi har bir sohada odamlarga sifatli axborot xizmatlarini taqdim eta oladi. Biroq bu xizmatlarni samarali ko'rsatish uchun kutubxonalar zamonaviy texnologiya, yangilangan kontent hamda kuchli huquqiy va siyosiy qo'llab-quvvatlash tizimiga ega bo'lishi lozim. Shuningdek, ular ilmiy kommunikatsiyalar sohasidagi keskin o'zgarishlarga moslasha oladigan, raqamli axborot va xizmatlar bilan ishlash ko'nikmasiga ega xodimlarga ham ehtiyoj sezadi.

Ana shunday to'siqlarni olib tashlash EIFL Afrika, Osiyo va Yevropadagi milliy kutubxona konsorsiumlari va jamoat kutubxonalar tarmoqlari bilan hamkorlikda harakat qiladi. EIFL ning maqsadlari quyidagilardan iborat: ishtirokchi davlatlarda milliy konsorsiumlarni barqaror rivojlantirish; elektron axborot xizmatlariga imtiyozli kirish imkoniyatini ta'minlash bo'yicha yetakchi ko'p tomonlama muzokarachiga aylanish; mahalliy ishlab chiqilgan raqamli resurslarni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash; xalqaro ekspertlarni jalb qilish orqali ochiq axborotlarning hajmini kengaytirish; a'zolari dolzarb axborot va texnologiyalar bilan tanishtirib borish; global moliyaviy agentliklar, jamg'armalar, konsorsium guruhlari va kontent provayderlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishdir. EIFL har bir odam teng huquqlidir va u global elektron axborot resurslaridan foydalanishga haqlidir degan g'oyani o'zining asosiy missiyasi deb hisoblaydi va bunga erishish uchun rivojlanayotgan va o'tish davridagi iqtisodiyotga ega mamlakatlardagi kutubxonalarni litsenzion axborot resurslari bilan taminlashni o'z oldiga maqsad qilgan. EIFLning 2024-2026 strategik rejalarining yo'nalishlari va maqsadlarida quyidagilar asosiy vazifa qilib qo'yilgan: nashriyotlar bilan bepul yoki chegirmali foydalanish bo'yicha kelishuvlar tuzadi hamda maqola uchun to'lov talab qilmaydigan jurnallar bilan hamkorlik qiladi. Shuningdek, kutubxonalarga litsenziyalangan elektron resurslarga masofaviy kirishni ta'minlash, texnik yechimlar bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi provayderlar bilan hamkorlik qilish va tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlovchi xizmatlardan chegirmali foydalanish imkoniyatlarini yaratishga intiladi.

EIFLning O'zbekistondagi faoliyati.

O'zbekiston Milliy kutubxonasi ham 2001-yildan buyon EIFL xalqaro konsorsiumi a'zosi hisoblanadi va a'zolik doirasida yuqoridagi barcha imkoniyatlardan keng foydalanadi hamda Respublikadagi barcha kutubxonalar, muassasalar va ularning kitobxonlari uchun litsenziyali dastur orqali yigirmaga yaqin xorijiy elektron resurslardan imtiyozli foydalanish imkoniyatini taqdim etadi [4].

Ommaviy kutubxonalar innovatsiya dasturi (EIFL PLIP – Public library innovation programme). EIFL konsorsiumi “*Ommaviy kutubxonalar innovatsiya dasturi*” tanlovida qatnashish imkonini ham yaratmoqda. Tanlov ommaviy

kutubxonalardagi jamiyat va kitobxonlar uchun yaratilgan innovatsion xizmatlarni aniqlash uchun tashkil etiladi. Tanlov g'oliblariga 1500 AQSh dollari miqdoridagi mukofot, mukofot kubogi, sertifikat, EIFL veb-sayti va keng tarmoqlar orqali ma'lumotlar taqdim etiladi. 2011-yildan boshlab, EIFL tomonidan 18 ta innovatsiya mukofoti tanlovlari e'lon qilingan bo'lib, Afrika, Osiyo, Yevropa, Lotin Amerikasi qit'alaridan tegishli 64ta g'oliblar e'lon qilindi. Arizalar ingliz, fransuz, rus va ispan tillarida yuborilishi mumkin. Bu dasturda EIFL konsorsiumiga a'zo mamlakatlardagi ommaviy kutubxonalardan yuborilgan arizalar qabul qilinadi.

EIFL bosh assambleyasi (General Assembly): Bundan tashqari a'zolik doirasida O'zbekistondagi koordinatorlar har yili o'tkaziladigan EIFLning Bosh assambleyasida (General Assembly) da ishtirok etishlari mumkin. Har yili barcha a'zo davlatlar koordinatorlari bir joyga yig'ilib, o'z tajribalarini almashadilar hamda bu sohada eng so'nggi yangiliklar va innovatsiyalar haqida suhbat olib boradilar. 2024-yilda EIFLning Bosh assambleyasi 8-10-oktyabr kunlari Istanbul shahrida bo'lib o'tdi. Konferensiya doirasida litsenziyali elektron resurslar xaridi va muzokaralar olib borish, nashriyotlar bilan yuzma-yuz suhbat, mualliflik huquqi bo'yicha yangilanishlar, kutubxonalarda sun'iy intellekt kabi mavzular ko'tarildi va maqolalarni bepul tarzda litsenziyali elektron bazalarda chop etishga tayyorlash bo'yicha yo'riqnoma hamda maqola chop etish uchun bepul jurnallar ro'yxati taqdim etildi. Konsorsiumga a'zolik doirasida O'zbekiston ilmiy hamjamiyati, jumladan, professorlar, doktorantlar, ilmiy izlanuvchilar xalqaro ilmiy-axborot bazalarida indekslangan (masalan, Web of science va Scopus) 1500 ga yaqin jurnallarda o'z maqolalarini chегirmali va bepul tarzda nashr ettirishlari mumkin. Bu jurnallar ro'yxati, jurnal rasmiy veb saytlari havolalari, jurnallar qaysi nashriyot tomonidan chop etilishi haqidagi ma'lumotlarni konsorsiumning rasmiy veb saytida ko'rish mumkin [5].

O'zbekiston Respublikasi barcha oliy ta'lim muassasalari ilmiy hamjamiyati va kutubxonalar uchun EIFL 20 dan ortiq xalqaro nashriyotlar tomonidan taklif etilayotgan ilmiy bazalarga kirish imkonini yaratmoqda. Quyida keltirilgan bazalardan nafaqat foydalanish balki kutubxona fondini ham elektron resurslar bilan boyitib borish mumkin. Kelishuvlar doirasida nashriyotlar resurslarning pdf variantini yuklab olish, ilmiy-axborot bazalarida indekslangan jurnallarda mualliflarning maqolalarini bepul tarzda chop etish, bazalardan foydalanish bo'yicha video qo'llanma va vebinarlar bilan ta'minlash kabi imkoniyatlarni ham taqdim etishmoqda.

ACM Digital Library: ACM (Association for Computing Machinery) raqamli kutubxonasi 70 ta ilmiy jurnal, 7 ta jurnal-ko'rinishdagi nashrlar, 170 ta yillik anjuman materiallari, axborotnomalar, veb saytlar va multimediya fayllarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, u "Guide to Computing Literature" nomli integratsiyalashgan ma'lumotlar bazasini ham o'z ichiga oladi — bu hisob-kitob statistikalarni o'z ichiga olgan va uch milliondan ortiq nashr yozuvlarini jamlagan keng qamrovli annotatsiya va iqtiboslar bazasidir. Bundan tashqari, ACM'ning barcha nashrlariga tarixiy arxiv (har bir nashrning ilk sonidan boshlab) kirish

imkoniyati ham mavjud (Ushbu kelishuv ACM kitoblarini o'z ichiga olmaydi). ACM Press tomonidan maqolani nashrga tayyorlayotgan mualliflar uchun muhim jihatlardan biri — maqola uchun to'g'ri indekslash va qidiruv axborotini "ACM Computing Classification System" (CCS) (<https://dl.acm.org/ccs>) asosida kiritishdir. Bu aniq toifalashni ta'minlab, foydalanuvchilar uchun mazmunni tezda aniqlash, tegishli adabiyotlarni topish, shuningdek, ACM Raqamli Kutubxonasi va boshqa onlayn manbalarda samarali qidiruvni ta'minlaydi [6].

ACM raqamli kutubxonasi quyidagi mavzularga oid resurslarni taqdim etadi: hisoblash texnikasi, axborot texnologiyalari, dasturiy ta'minot muhandisligi, ma'lumotlar bazasi tizimlari, ma'lumotlarni tahlil qilish, kiberxavfsizlik, sun'iy intellekt, mashinali o'qitish, kompyuter tarmoqlari, axborot tizimlari, internet, mobil va multimedia texnologiyalari.

Bu baza haqidagi to'liq ma'lumotni quyida topish mumkin:

- ACM raqamli kutubxonasi foydalanuvchi qo'llanmasi (https://libraries.acm.org/binaries/content/assets/libraries/new_acm-digital-library-user-guide.pdf)

- ACM Raqamli Kutubxonasidan qanday foydalanish bo'yicha videolar (<https://libraries.acm.org/training-resources/dl-videos>)

- Jurnal nomlari ro'yxatini yuklab olish (<https://dl.acm.org/about/content>)

e-Duke Journals Scholarly Collection: Duke University Press Duke universitetining akademik nashriyoti hisoblanadi. Nashriyot 1921- yilda Uilyam T. Laprade tomonidan asos solingan. Respublikamizdagi barcha kutubxonalar va muassasalar E- Duke University Press nashriyotining gumanitar va ijtimoiy fanlar bo'yicha barcha sonlarni o'z ichiga olgan jurnallar to'plamiga (Duke Journals Scholarly Collection) onlayn kirish imkoniga ega. EIFL kelishuvlari yordamida esa hozirda 59 ta nomdagi jurnallarning barcha sonlariga joriy va arxiv kirish imkoniyati taqdim etilmoqda [7].

Sohalar qamrovi esa quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi: aktivizm, Afrika-amerikaliklar tadqiqotlari va qora tanli diasporasi, Afrika tadqiqotlari, Amerika tadqiqotlari, antropologiya, san'at va tasviriy madaniyat, Osiyo-amerikaliklar tadqiqotlari, Osiyo tadqiqotlari, Avstraliya/Yangi Zelandiya/Okeaniya tadqiqotlari, Karib havzasi tadqiqotlari, Chikano va Lotin amerikaliklar tadqiqotlari, tanqidiy etnik tadqiqotlar, madaniyatshunoslik, nogironlik tadqiqotlari, iqtisodiyot, atrof-muhit tadqiqotlari, Yevropa tadqiqotlari, gender va jinsiylik, umumiy qiziqishlar, geografiya, globallashuv va neoliberallik, tarix, Lotin Amerikasi tadqiqotlari, huquq, tilshunoslik, adabiyot va adabiy tadqiqotlar, matematika, OAV tadqiqotlari, tibbiyot va sog'liqni saqlash, yaqin sharq tadqiqotlari, musiqa, mahalliy va tub aholi tadqiqotlari, tabiiy fanlar, pedagogika va oliy ta'lim, siyosat, mustamlakachilikdan keyingi nazariya, qadimgi davr tadqiqotlari, diniy tadqiqotlar, fan va texnologiya tadqiqotlari, sotsiologiya, teatr va sahna ijrosi, nazariya va falsafa.

Bu bazaga a'zolikning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- Duke University Press jurnallari o'z sohalarida ilg'or ilmiy izlanishlar bilan mashhur. Mashhur jurnallar qatoriga American Literature, Ethnohistory, GLQ,

History of Political Economy, Journal of Asian Studies, Journal of Health Politics, Policy and Law, Journal of Music Theory, Public Culture, South Atlantic Quarterly kiradi.

- 2025-yil uchu Federal Sentencing Reporter va New Political Science jurnallariga kirish ochiq.

- Barcha jurnallar PDF formatida, ba'zilar HTML formatida ham mavjud

- Raqamli huquqlarni boshqarish bo'yicha hech qanday cheklov yo'q (DRM): foydalanuvchilar maqolalarni chop eta oladi, onlayn o'qiydi yoki PDF fayllarni yuklab olishi mumkin

- Kalit so'z, muallif, DOI hamda to'liq matn orqali ilg'or qidiruv imkoniyati mavjud

- Crossref, PubMed va Google Scholar orqali iqtibos havolalarini olish mumkin

- Platformaning foydalanuvchi tajribasi World Wide Web Consortium Web Content Accessibility Guidelines 2.0 versiyasining AA darajasiga to'liq mos keladi yoki undan yuqori

- Asosiy ilmiy-axborot bazalarida indekslangan: CrossRef, OCLC, EBSCO va ProQuest mahsulotlari

- Jurnallar ro'yxati bilan quyidagi havola orqali tanishingiz mumkin.
https://read.dukeupress.edu/journals/pages/Browse_by_Title

Edward Elgar Publishing Development Studies & Environment e-books:

EIFL Edward Elgar Publishing kompaniyasining *“Rivojlantirish tadqiqotlari va atrof-muhit”* bo'yicha elektron kitoblar to'plamlariga EIFL hamkor mamlakatlarida joylashgan muassasalar uchun bepul kirish huquqi kelishib olingan. Bu to'plamlar jami 756 nomdagi kitoblarga kirishni o'z ichiga oladi [8].

Rivojlanish tadqiqotlari to'plami moliya, iqtisodiyot, innovatsiyalar tadqiqotlari, infratuzilma rivoji, sog'liqni saqlash, korporativ boshqaruv, davlat va ijtimoiy siyosat, migratsiya, tadqiqot metodlari, intellektual mulk, huquqiy islohotlar va boshqa sohalarga oid tadqiqotlarini o'z ichiga oladi. To'plam ilmiy monografiyalar, qo'llanmalar va ma'lumotnoma kitoblaridan iborat.

Atrof-muhit to'plami esa ekologik geografiya, iqtisodiyot, huquq, energetika siyosati, tadqiqot metodlari, korporativ ijtimoiy mas'uliyat va transport kabi yo'nalishlarni, asosan, ekologiya nuqtayi nazaridan yoritadi. Bu to'plam ham ilmiy monografiyalar, qo'llanmalar, ensiklopediyalar va ma'lumotnoma kitoblarini o'z ichiga oladi. Edward Elgar nashriyotining jurnallari bilan birga ushbu elektron kitoblar Elgaronline (<https://www.elgaronline.com/>) nomli kontent platformasida joylashtirilgan. Bu sayt Edward Elgar nashriyotining barcha elektron kitoblari va jurnallari uchun yagona platforma hisoblanadi.

Sohalar qamrovi: rivojlanish tadqiqotlari, atrof-muhit.

To'liq ma'lumot:

Obuna doirasida manbalarga kirish:

<https://www.elgaronline.com/browse?access=user>

Kitoblar ro'yxatini yuklab olish:

https://eifl.net/sites/default/files/resources/eifl_2023-books.xlsx

Foydalanish statistikasini yuklab olish:

<https://ams.elgaronline.com/login?redirect=%2F>

Edward Elgar Publishing Journals: Edvard Elgar nashriyot jurnallari to'plamining huquq, iqtisod, geografiya, menejment va yetakchilik sohalariga oid 17 ta jurnalning joriy va arxiv sonlaridan Respublikadagi barcha tashkilotlar foydalanishi mumkin. Jurnallar ro'yxati [9]:

1. *Journal of Human Rights and the Environment*
2. *Queen Mary Journal of Intellectual Property*
3. *Asia Pacific Journal of Environmental Law*
4. *Cambridge International Law Journal*
5. *Interactive Entertainment Law Review*
6. *Competition Law Journal*
7. *Review of Keynesian Economics*
8. *European Journal of Economics and Economic Policies: Intervention*
9. *Journal of Qualitative Research in Tourism*
10. *Leadership and the Humanities*
11. *Competition Law and Policy Debate*
12. *Military Law and Law of War*
13. *Renewable energy Law and policy*
14. *European Energy and Climate*
15. *Cape Town Convention*
16. *Comparative Constitutional Studies*
17. *Advances in Economics Education*

European Respiratory Journal: The European Respiratory jamiyati nafas olish organlari salomatligi bo'yicha bilim va tadqiqotlarni targ'ib qilish uchun bir qator nashrlarni ishlab chiqaradi, jumladan The European Respiratory elektron jurnali – hujayralar biologiyasi, epidemiologiya, immunologiya, onkologiya, jarrohlik va tibbiyotning barcha jihatlariga oid ilmiy maqolalarni nashr etadi. Bu jurnalning Web of science bazasidagi impact factor ko'rsatkichi 24.3 ga teng [10].

IWA Publishing Journals: Xalqaro suv assosiasiyasining atrof-muhit sohasi bo'yicha 15 nomdagi elektron jurnallar to'plamiga kirish imkoniyati yaratilgan [11]:

1. *Blue-Green Systems*
2. *H2Open Journal*
3. *Hydrology Research*
4. *Ingenieria del Agua*
5. *Journal of Hydroinformatics*
6. *Journal of Water and Climate Change*
7. *Journal of Water and Health*
8. *Water Reuse*
9. *AQUA - Water Infrastructure, Ecosystems and Society*
10. *Journal of Water, Sanitation and Hygiene for Development*
11. *Water Policy*
12. *Water Practice & Technology*
13. *Water Quality Research Journal*
14. *Water Science & Technology*
15. *Water Supply*

Mathematical Sciences Publishers Journals: matematika sohasini qamrab olgan eng yuqori sifatli ilmiy va tadqiqot nashrlarini elektron bazasi xisoblanadi. Elektron baza matematika, mehanika va muhandislik sohasiga oid 17 nomdagi jurnallarni taqdim etadi:

1. Algebraic & Geometric Topology
2. Algebra & Number Theory
3. Algebraic Statistics
4. Analysis & PDE
5. Annals of K-Theory
6. Communications in Applied Mathematics and Computational Science
7. Essential Number Theory
8. Geometry & Topology
9. Innovations in Incidence Geometry: Algebraic, Topological and Combinatorial
10. Involve, a Journal of Mathematics
11. Journal of Mechanics of Materials and Structures
12. Model Theory
13. Combinatorics and Number Theory
14. Pacific Journal of Mathematics
15. Pure and Applied Analysis
16. Probability and Mathematical Physics
17. Tunisian Journal of Mathematics

Open Book Publishers E-books: EIFL Open Book Publishers (OBP) bazasidagi kitoblardan bepul foydalanishni ta'minlab kelmoqda. EIFL hamkor davlatlaridagi kutubxona konsorsiumlariga a'zo bo'lgan kutubxonalar bu bazaning 370 dan ortiq nomdagi barcha elektron kitoblarini barcha formatlarda cheksiz va bepul yuklab olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ushbu elektron kitoblar to'plamiga monografiyalar, tahrirlangan kitoblar va darsliklar kiradi. To'plam muntazam ravishda yangi resurslar bilan boyitib boriladi [13].

Sohalar qamrovi esa quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi: Afrika tadqiqotlari; Amerika va lotin Amerikasi tadqiqotlari; antropologiya; arxeologiya va din; osiyo tadqiqotlari; biografiya; biznes boshqaruvi; kembrij semitik tillar va madaniyatlar; antik adabiyot; yunon tili darsliklari; lotin tili darsliklari; raqamli gumanitar fanlar; iqtisodiyot, siyosat va sotsiologiya; ta'lim; atrof-muhit tadqiqotlari; yevropa tadqiqotlari (sharqiy Yevropa tadqiqotlarini ham o'z ichiga oladi); ingliz va irlandiya tadqiqotlari; fransuz tadqiqotlari; nemis tadqiqotlari; italyan tadqiqotlari; folklor va etnologiya; sog'liqni saqlash; tarix; kitob tarixi; xalqaro munosabatlar; axborot texnologiyalari va kompyuter fanlari; huquq; intellektual mulk huquqlari; tilshunoslik; adabiyot: qiyosiy adabiyot; moddiy madaniyat; matematika; oav va jurnalistika; boshqa tillar; sahna san'ati; falsafa; fan: amaliy fanlar; fan tarixi; tasviriy san'at; ayollar va gender tadqiqotlari.

Open book publisher bazasiga a'zolikning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- Nashrlarning barcha raqamli formatlarini (PDF, ePub, Mobi yoki HML) openbookpublishers.com veb sayti orqali cheksiz va bepul yuklab olish imkoniyati;
- Kitoblarning bosma nashrlarini kutubxonalar, universitet xodimlari va talabalari xarid qilganda 20% chegirma;

•Nashrlardan tarkibni tanlab aralashtirish orqali yaratilgan kurs to‘plamlari va boshqa maxsus nashrlar uchun tayyorlash xarajatlarida 20% chegirma;

•Kitoblarning istalgan raqamli formatini kutubxonaning repozitoriyasi yoki elektron kitoblar to‘plamiga yuklash va ularni doimiy saqlab qolish huquqi;

•Kutubxona katalogiga elektron kitoblarni qo‘shish va ularni foydalanuvchilar uchun yanada ochiq qilish uchun MARC (machine readable cataloguing) yozuvlarini yuklab olish imkoniyati.

Pullik e-kitob versiyalarini bepul yuklab olish tartibi:

•Siz openbookpublishers.com saytiga o‘z kutubxonangiz yoki universitetingiz tarmog‘i orqali kirishingiz kerak, chunki tizim kutubxonangiz a‘zolicini IP manzili orqali aniqlaydi;

•Kitob nomini tanlang, va agar siz to‘g‘ri tarmoq orqali kirayotgan bo‘lsangiz, barcha yuklab olish variantlari bepul bo‘ladi (agar boshqa joydan kirilsa, ayrim formatlar narxlar bilan ko‘rsatiladi).

OpenEdition Journals: OpenEdition - bu universitet matbuoti va kichik akademik nashriyotlar tomonidan nashr etilgan gumanitar va ijtimoiy fanlar bo‘yicha 184 ta jurnallar to‘plami hisoblanadi. Jurnallar HTML, PDF va ePUB formatlarida mavjud bo‘lib, ular doimiy kirish imkonini beradi. Nashrlarning 80% ga yaqini fransuz tilida bo‘lib, jurnallarning yarmi muntazam ravishda ingliz, ispan, italyan va portugal tillarida nashr etiladi. Jurnallar ro‘yxati bilan quyidagi havola orqali tanishish mumkin [14,15]:

Royal Society Journals Collection: Royal Society publishing Buyuk Britaniya Qirollik jamiyatining nashriyot bo‘limi bo‘lib, 1660-yilda asos solingan dunyodagi eng qadimiy ilmiy akademiya hisoblanadi. Royal Society nashriyotining jurnallar to‘plami fizika, matematika, muhandislik va biologiya fanlari bo‘yicha 8 nomdagi yuqori impact factor ko‘rsatkichga ega elektron jurnallarni o‘z ichiga oladi [16]:

1. *Biology Letters*
2. *Notes and Records*
3. *Interface*
4. *Interface Focus*
5. *Proceedings A*
6. *Proceedings B*
7. *Philosophical Transactions A*
8. *Philosophical Transactions B*

Sohalar qamrovi: Biologiya fanlari, fizika, matematika va muhandislik fanlari

The Company of Biologists’ Journals: The Company of Biologists tomonidan nashr etilgan uchta gibrid jurnalga bepul kirish imkonini beradi: Development; Journal of Cell Science; Journal of Experimental Biology. Jurnallar rivojlanayotgan biologiya, hujayra biologiyasi, zoologiya kabi fan sohalariga oid maqolalarni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga bu bazaga obuna bo‘lgan tashkilotlarning ilmiy izlanuvchilari yuqoridagi uchta jurnalda bepul tarzda maqolalar chop etishlari mumkin [17].

EIFL konsorsiumiga a'zolik doirasida O'zbekiston uchun taqdim etilgan bepul va chegirmali tarzda foydalanish mumkin bo'lgan bazalar ro'yxatini quyidagi jadvalda ko'rish mumkin:

Chegirmali narxda foydalanish	Bepul tarzda foydalanish
Brill Journals	Association for Computing Machinery digital library
Cambridge Journals Online	e-Duke Journals Scholarly Collection
Credo Online Reference Service, Academic Core Collection	Edward Elgar Publishing Development Studies & Environment e-books
HeinOnline	Edward Elgar Publishing Journals
IMEchE Journals (Sage Publications)	European Respiratory Journal
IOPscience Extra	International Water Association Publishing Journals
JSTOR	Mathematical Sciences Publishers Journals
Oxford Journals Full Collection	OpenEdition Journals
EUCLID PRIME collection (Duke university press)	Open Book Publishers E-books
	Royal Society Journals
	The Company of Biologists

Xulosa

Hozirgi kunga qadar O'zbekistonda akademik kutubxonalar konsorsiumini shakllantirishga oid maxsus qonunchilik bazasi mavjud emas. Bu holat oliy ta'lim muassasalarining qimmatli elektron axborot resurslariga jamoaviy foydalanishini tashkil etishda muayyan to'siqlarni keltirib chiqarmoqda. Ayni paytda xorijiy nufuzli ma'lumotlar bazalariga obuna bo'lish bo'yicha asosiy moliyaviy va tashkiliy yuk O'zbekiston Milliy kutubxonasi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga yuklatilgan. Shunday ekan, oliy ta'lim muassasalari va axborot-kutubxona muassasalarini konsorsium shaklida birlashtirishga doir huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu esa qimmatli axborot manbalaridan samarali foydalanishni ta'minlash, milliy elektron ma'lumotlar bazalarini yaratish, shuningdek, axborot-kutubxona sohasidagi mutaxassislarning kasbiy salohiyatini oshirish imkonini beradi.

Kutubxonalar konsorsiumi bugungi kunda ilm-fan va ta'lim sohasida muhim strategik vositaga aylanib bormoqda. U nafaqat axborot resurslariga keng va arzon kirish imkonini beradi, balki universitetlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash,

resurslardan samarali foydalanish, malakali kadrlar tayyorlash va ilmiy salohiyatni oshirishda ham muhim rol o'ynaydi. Konsorsium orqali ta'lim sifati, tadqiqotlar samaradorligi va axborot tengligi sezilarli darajada oshadi. Katta va kichik ta'lim muassasalari teng huquqli foydalanuvchilarga aylanishi natijasida raqobat emas, balki strategik hamkorlik ustuvorlik kasb etadi. Ayniqsa, O'zbekiston sharoitida bunday tizimning joriy etilishi hududiy va iqtisodiy tafovutlarni bartaraf etishga xizmat qilishi mumkin.

EIFL konsorsiumining faoliyati ayniqsa e'tiborga loyiqdir, chunki u Springer, ProQuest, IEEE kabi nufuzli nashriyotlarning muhim ma'lumotlar bazalariga maqbul moliyaviy sharoitlarda foydalanish imkoniyatini taqdim etdi. Mazkur masala yuzasidan batafsil ma'lumot olish istagida bo'lganlar O'zbekiston Milliy kutubxonasining Xalqaro aloqalar bo'limiga murojaat qilishlari mumkin (www.natlib.uz).

Adabiyotlar ro'yxati

1. Lapo M, Rakhmatullaev M. Problems And Prospects of Information Interoperability of Academic Libraries in Central Asia University Library at a New Stage of Social Communications Development. Conference Proceedings, 2024, No. 9 UniLib NSD-2024 Strategic Partnership ISSN 2707-0476 Creative Commons Attribution 4.0 International
https://doi.org/10.15802/unilib/2024_318415
2. Rakhmatullaev, M., & Hedrich, A. (2023). Academic Libraries of Uzbekistan: Challenges and Development Prospects. *Slavic & East European Information Resources*, 24(4), 242–257.
<https://doi.org/10.1080/15228886.2024.2312686>
3. <https://eifl.net/>
4. https://www.natlib.uz/bbs/content/94_536443
5. https://www.eifl.net/uzbekistan_apc
6. <https://dl.acm.org/>
7. <https://read.dukeupress.edu/>
8. <https://www.e-elgar.com/>
9. <https://www.elgaronline.com/page/70/journals>
10. <https://erj.ersjournals.com/>
11. <https://www.iwapublishing.com/journals>
12. <https://msp.org/publications/journals/>
13. <https://www.openbookpublishers.com/>
14. <https://www.openedition.org/>
15. <https://www.openedition.org/catalogue-journals?limit=30&access%5B%5D=Open+access+Freemium>

16.<https://royalsociety.org/journals/>
<https://www.biologists.com/>